“TUHFATUL-ATFOL FI TAJVIDIL-QUR’AN” ASARI VA UNGA YOZILGAN SHARHLAR

Miraxmadova Xusnora Dilshod qizi
E-mail: miraxmadovaxusnorahumayro@gmail.com

Qabul qilindi: 26.10.2025 **Tasdiqlandi:** 27.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 26.10.2025

“Tuhfatul-atfol” asari yozilganiga ikki yarim asr o‘tayotgan bo‘lsa-da, unga yozilgan davridan beri ko‘plab sharhlar yozilgan. Sharhlar ustida izlanilganda 35 ga yaqini ma’lum bo’ldi.

Sharhlarning barchasi o‘z uslubiga ega. Har bir sharh muallifi kitobining manfaati kam bo‘lmasligi uchun avvalgisining uslubidan chetlangan holatda, o‘ziga nuqson deb ko‘ringan xatolarni takrorlamaslikka harakat qilgan. Shunday uslubda turfa xil sharhlar paydo bo‘ldi. Ularni quyida keltiramiz:

1. “Fathul aqfol bisharhi “Tuhfatil atfol” – Sulaymon ibn Husayn ibn Muhammad Jamzuriy.[1]

Ushbu sharh “Tuhfatul atfol” muallifining o‘z sharhlari bo‘lib, qolgan sharhlarga qaraganda o‘rta hajmda bo‘lsa-da, eng manfaatlilaridandir. Chunki matndan nima iroda qilinganini eng biluvchirog‘i uning muallifi hisoblanadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan muallif sharhlarining avvalida uni yozishda ustozlari Shayx Nuriddin Miyhiyning o‘g‘li Muhammad Miyhiyning “Fathul malik al-muta’oliy bisharhi tuhfatil atfol” nomli sharhidan foydalanganlarini aytganlar. Bunda yuksak odob namunasi bo‘lmish nafaqat ustozning o‘zini, balki farzandini ham ulug‘lashlik bor. Buni sharh avvalida alohida ta’kidlab o‘tganlari ham e’tiborga molik.

2. “Fathul malik al-muta’aliy bisharhi tuhfatil atfol” (“Tuhfatul atfol”ni sharhlashda “Malik” va “Muta’ol” Zotning yordami”) – Muhammad Miyhiy Ahmadiy Misriy.[2]

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ushbu sharh muallifi Sulaymon Jamzuriyning ustozlarining farzandi bo‘lib, XVIII asr buyuk olimlaridan hisoblanadi. Qiroat ilmida yetuk mutaxassislardan, bu uning sharhlash uslubida ma’lum bo‘ladi. Bu sharh boshqa sharhlarga qaraganda eng qadimiy sharh bo‘lib, tajvid qoidalari keng va mufassal bayon etilgan. Tushunarsiz lug‘atlari atroflicha sharhlangan. Sulaymon Jamzuriyni sharh muqaddimasida alohida ehtirom bilan zikr qilingan: “Solih, mustahkam ilm sohibi, najot topuvchi birodarim, mavlono Shayx Sulaymon Jamzuriy Afandi...”[3]. Bu esa Muhammad Miyhiy nazdida Sulaymon Jamzuriyning qadrini namoyon qiladi.

[1] Iroq: “Jomi‘atu bobil” nashriyoti, 2010.
[2] Makka: “Avlod ash-shayx liy at-turos” nashriyoti, 2003.
[3] Muhammad al-Miyhiy al-Ahmadiy. Fath al-malik al-muta'oliy fiy sharhi tuhfa al-atfol. – Makka: “Avlad ash-shayx li at-turos” nashriyoti, 2003. – B.17.

3. “Minhatu zil jalal fi sharhi tuhfatil atfol” (“Tuhfatul atfol”ning sharhi borasida “Zuljalol” Zotning tuhfasi”) – Nuriddin Ali ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Abdulloh Dobba’.[4]

Sharh muallifi o‘z zamonasida Misr diyorining ko‘zga ko‘ringan eng yirik olimlaridan dars olgan va minglab shogirdlarning ustozi bo‘lgan. Qorilar va Qur’on ta’lim muassasasining raisi, Qur’on chop etish mutaxassisi bo‘lib, Misr davlat ovoz yozish studiyalari boshlig‘i sifatida faoliyat yurgizgan. Taqvodor, zohid, kamtar olimligi bilan tanilgan. 1961-yil 74 yoshida vafot etgan.

Aynan ushbu sharh sharhlar ichida mukammali va mufassal bayon etilganidir. Unda “Tuhfatul atfol” matnining qiyosiy tahlili, nodir lug‘atlar sharhi, baytlarning keng sharhi keltirilgan. Hatto “Tuhfatl atfol”dagi qoidalar Hafs rivoyatiga ko‘ra yozilgan bo‘lsa-da, uni boshqa o‘n qiroat bilan oradagi farqlarni bayon qilgan. Shuningdek, matnda keltirilmagan tajvidiy qoidalarni ham tushuntirgan.

4. “Aqrobu aqval ala fathil aqval sharhi tuhfatil atfal” – bu sharh ham Nuriddin Ali ibn Muhammad Dobba’ga tegishli.
5. “Hashiya ala tuhfatil atfal” – bu hoshiya ham Nuriddin Ali ibn Muhammad Dobba’ga tegishli.
6. “Taqribul manol bisharhi tuhfatil atfol” (“Tuhfatul-atfol”ning sharhi borasida orzularga yetish”) – Hasan ibn Hasan Abdulmajid ibn Mustafo ibn Abdurazzoq ibn Ahmad Dimashqiy.[5]

Olim onasining qornidaligida otasi vafot etib, 1918 yilda yetimlikda tug‘ildi. Bobosi asrab olgach, ikki yoshida ko‘zi ojiz bo‘lib qoldi. 13 yoshida Qur’onni to‘liq yod olib, undan boshqa kitoblarni yodlashga ham zehni mustahkam edi. Damashqqa ko‘chib o‘tganidan so‘ng ko‘plab yurtlarga ilm talabida safar qildi. Qur’on va hadis ilmlarida mutaxassis bo‘lib, talay shogirdlar yetishtirib chiqargan. Asosan ta’lim berish bilan shug‘ullangani uchun ko‘p asarlar yoza olmagan. Bizga 4 dona asari ma’lum. 1991-yilda 72 yoshida bemorlikdan vafot etdi.

Muallifning sharhi ko‘pchilik e’tirof etgan, zamonamizga yaqin sharhlardandir. Unda ham tushunarsiz lug‘atlar o‘z uslubiga ko‘ra sharhlangan, qo‘shimcha qoidalar ham to‘ldirilgan.

7. “Fathu Robbil bariyya fi halli alfozit tuhfa val jazariyya” (“Tuhfa” va “Jazariyya” asarlarining matnidagi chigal so‘zlarning yechilishi borasida Allohning yordami”) – Ahmad Iso Ma’saroviy, Ahmad Abdurrahim Abdurrahmon, Sayyid ibn Muxtor ibn Abu Shodiy.[6]
8. “Tahqiqu matni tuhfatil atfol” (“Tuhfatul-atfol” matnining tadqiqi”) – Alouddin Mahmud Mordiniy.[7]

Beshinchi va oltinchi asarlar “Tuhfatul-atfol”ning aynan sharhi bo‘lmasa-da, ularda “Tuhfatul-atfol”ning matni va sharhlaridagi matnlarining o‘rtasidagi farqlar qiyosiy tahlil orqali mufassal bayon etilgan.

---

[4] Riyoz: “Azvaus salaf” nashriyoti, 1997.
[5] Bayrut: “Dor al-bashoir al-islomiyya” nashriyoti, 2004.
[6] Misr: “Dor as-sahifa” nashriyoti, 2007.
[7] Riyoz: “Muassasa al-Qur‘on al-karim va as-sunna an-nabaviyya” nashriyoti, 2014.

9. “Tuhfatul anbariyya fi ma'rifil ahkamil Qur’aniyya” (“Tuhfatulatfol”ning sharhi borasida mushki anbarli tuhfa”) – Shayx Mahmud Rifo’a Anbar Tahtoviy.[8]
10. “Tuhfatul anbariyya fi sharhi tuhfatil atfal” – Ibn Abdulvahhob Solimiy.
11. “Sharhu tuhfatul atfol” (“Tuhfatul-atfol”ning sharhi”). Shayx Muhammad ibn Muhammad Solim Muhaysin.
12. “Alvafiy sharhul jazariyya va tuhfatil atfal” – Ahmad Mahmud Abdussami’.
13. “Sharhu tuhfatul atfol” (“Tuhfatul-atfol”ning sharhi”) – Shayx Mursiy Javhar.
14. “Himamur rijol fi sharhi tuhfatil atfol” (“Tuhfatul atfol”ning sharhi borasida olimlarning e’tibori”) – Majid Muhammad Iqbol Bahuto.[9]
15. “Sharhu tuhfatil atfol lil mubtadin” (“Tuhfatul-atfol”ning sharhi”) Abu Abdurrahmon Jamol ibn Ibrohim Qirsh.[10]
16. “Aysarul maqol fi sharhi tuhfatil atfol” (“Tuhfatul-atfol”ning sharhi borasida eng yengil so‘z va gaplar”) – Muhammad Rafiq Mu’min Shavbakiy.[11]
17. “Ihkam fi dobti muqaddimatil jazariyya va tuhfatil atfol” (“Muqaddimatul jazariyya” va “Tuhfatul atfol” asarlarini o‘rganib, mustahkamlash”) – Muhammad ibn Falah al-Matiriy.[12]
18. “Miftahul kamol sharhu tuhfatil-atfol” (“Tuhfatul atfol”ning sharhi borasida mukammal kalit”) – Shayx Muhammad Foniftiy.
19. “Bug‘ya al-kamol sharhu tuhfa al-atfol” (“Tuhfatul atfol”ning sharhi” borasida ulkan orzu”) – Shayx Usoma Abdulvahhob.
20. “Taysir al-kabir al-muta'oliy bisharhi tuhfa al-atfol” (“Tuhfatulatfol”ning sharhi “Al-kabir” va “Al-muta’ol” Zotning yengillik berishi”) – Shayx Aliy ibn Muborak Ozimiy.
21. “Sharhu tuhfa al-atfol” (“Tuhfatul atfol”ning sharhi”) – Shayx Abdulaziz Nog‘iy.
22. “Fathu zil-jalol bisharhi tuhfatil-atfol” (“Tuhfatul atfol”ning sharhi borasida “Zul-jalol” Zotning yordami”) – Shayx Hasan Varroqiy.
23. “Fath al-kabir al-muta'oliy fiy sharhi tuhfa al-atfol” (“Tuhfatul atfol”ning sharhi borasida “Al-kabir” va “Al-muta'ol” Zotning yordami”) – Shayx Hamdiy Sayyid.
24. “Ithofur rijal val fityon bima'aniy tuhfatil atfoli va al-g‘ilmon”–Shayx Doktor Ashraf Tal’at.

[8] Bayrut.: “Dor al-kutub al-ilmiyya” nashriyoti, 2014.
[9] Makka: “Avlod ash-shayx liy at-turos” nashriyoti, 2003.
[10] Misr: “Tolib al-ilm” nashriyoti, 2011.
[11] Falastin: “Dorul huda” nashriyoti, 2015.
[12] Quvayt: “Qito al-masajid” nashriyoti, 2008.

25. “Minna al-muta'oliy sharhu tuhfa al-atfol” (“Tuhfatul atfol”ning sharhi borasida “Al-muta’ol” Zotning sovg‘asi”) – Shayx Mahmud Ra’fat.
26. “Muallim at-tajvid al-jadid ma'a tuhfa al-atfol” (“Tuhfatul atfol” orqali yangicha tajvid muallimi”) – Shayx Muhammad Ibrohim Salim.
27. “Ta’tirul bariyya bi sharhil Jamzuriyya” – Ahmad ibn Fathiy Bukayriy.
28. “Hidayatul muta`al bisharhi tuhfatil atfal” – Ahmad ibn Ahmad Muqaybil Misriy Sofiy Shoziliy Molikiy. Hijriy 1254 yil vafot etgan.
29. “Havashiy ala tuhfatil atfal” – Abu Iyd Rizvon ibn Muhammad ibn Sulaymon Muhallolotiy. Hijriy 1311 da vafot etgan.
30. “Ahsanul aqval fi sharhi tuhfatil atfal” – Shayx Abu Hafs Umar Muhammad Azhariy.
31. “Sharhu munzumati tuhfatil atfal fi ilmit tajvid” – Abdulaziz Qoid Udayniy.
32. “Ianatul mustafid bidobti matnayit tuhfati val jazariyya fi ilmit tajvid” – Hasan ibn Mustafo Varroqiy Misriy.
33. “Ithaful bariyya bi dobti matnayit tuhfa val jazariyya” – Sayyid ibn Muxtor Abu Shadiy.
34. “Fathu ziljalali bisharhi Tuhfatil atfali fit tajvid” – Ibrohim ibn Faqih Surayhiy.
35. “Tahqiqul manal bi sharhi tufatil atfal fi ilmit tajvid” – Sulaymon ibn Xolid ibn Nosir Harbiy.[13]

Yuqoridagi 35 ta sharh va hoshiyalarning hammasi turli uslublarda yozilgani kuzatiladi. Ba’zilari mufassal sharh bo‘lsa, ba’zilari esa muxtasar sharhlangan matnlardir. Ba’zi sharhlarda asosan matnning qiyosiy tahlili bayon etilgan bo‘lsa, ba’zilarida ushbu jihat yoritilmagan. Ba’zilari mavzuni jamlab tushunish osonroq bo‘lishi uchun jadvallar bilan yoritilgan bo‘lsa, ba’zilari oddiy-klassik uslubda sharhlangan. Har bir shorih o‘z zamonida ushbu asarda bayon etilgan qoidalarni qay uslubda sharhlash va izohlash manfaatliroq bo‘ladi, deb hisoblasa, shunday sharhlagan.

[13] Riyoz: “Dor attadmuriyya” nashriyoti, 2019.